

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.



JAMSHID SHODMONOV

The growth of online shopping in Uzbekistan and its impact on consumer behavior.....412

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Xususiyl tadbirkorlik: kichik biznesning rivojlanishi va strategik yutuqlari.....426

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.....432

ERGASHEVA SHAXZODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.....442

BAHROM KAMILOVICH AVEZOV

Orol dengizi mintaqasida qashshoqlikni kamaytirish: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional yondashuvlarning ko'p o'lchovli tahlili.....448

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va milliy amaliyot.....458

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirishning agroteknologik xususiyatlari.....466

XUDAYQULOV JONIBEK BOZAROVICH, QASHQABOYEVA CHULPANOY TULKUNOVNA, ALISHEROV XASAN ALISHER O'G'LI

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda sholini muttasil yetishtirishda mineral va organik o'g'itlar qo'llashning hosildorlikga ta'siri.....472

ЧОРИЕВА ЗАРХОЛ ҚОДИРОВА

Суғориш усуллари ва тартибини анор навлари фенологик фазаларининг ўтиш муддати ва давомийлигига таъсири.....478

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH

Oraliq ekin sharoitida turli ekish sxemalarining piyoz hosildorligiga ta'siri.....484

МАВЛОНОВА НАСИБА УМАРОВА

Оптимал суғориш ва сув танқислиги шароитида ғўзанинг навлараро мураккаб дурагайларида олинган оила, тизма ва навида 1000 дона чигит вази белгисининг шаклланиши.....488

MUXTOROV O'ZBEKXON BURHONOVICH

Davlat mulkchiligi sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy baholashning gibrid modeli: obyektiv va bozor signallarini integratsiyalash asosida.....493

YO'LDOSHEV NURBEK ERGASHOVICH, SAYFULLAEVA MAXBUBA ILXOMOVNA

«Alpek» mahalliy antigelmint substansiyasining quyonlarda o'tkir toksikligini klinik, gematologik va biokimyoviy baholash.....501

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Baholash natijalari asosida yer tuzish loyihalarini optimallashtirish.....509





YULDASHOV NURBEK ERGASHOVICH, ZAHRIDDINOVA GAVHAR HASAN

QIZI

Chorvachilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya jihatidan baholash usullari va ilmiy-amaliy ahamiyati.....516

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH, SHOKIROV ALISHER

JO'RABOYEVICH

Piyozni oraliq ekin sifatida ko'chatidan ekib yetishtirishda piyoz nav namunalarining rivojlanish bosqichlarini davomiyligi.....521

ТРЯНОВСКАЯ РАНО АБДУСАТТАРОВНА, ИСАМУХАМЕДОВ САЛИХ

ШУКУРОВИЧ

Сезонная динамика клинических показателей Африканских страусов разных возрастных групп в условиях Узбекистана.....526

TURDALIEV JAMOLBEK MO'MINALIEVICH, SANAQULOV SUXROB

FARMONQULOVICH

Teskari Osmos texnologiyasi yordamida minerallashgan kollektor-drenaj suvlarini tozalash va uning tuproq ekologik-meliorativ holatiga ta'siri.....531

BO'RIYEV ABROR NORTAJIYEVICH, NIZOMOV RUSTAM AXROLOVICH

No'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda ekish sxemalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....539

KAMALOVA NARGIZA MAXAMMADOVNA

Pomidorni kokteyl tipidagi duragay namunalarining hosildorligi.....545

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Yer tuzishni majmuaviy baholashning integrallashgan ko'rsatkichini shakllantirish va hisoblash algoritmi.....522

BOLTAYEV SAYDULLO MAQSUDOVICH, MELIYEVA FAROG'AT SHAVKAT

QIZI

Kuzgi bug'doyning (*Triticum Aestivum* L.) biometrik ko'rsatkichlari va hosil elementlarining shakllanishiga mineral o'g'itlarga qo'shimcha tabiiy adsorbentlarni qo'llashning ta'siri.....567

UZOQOV ADIXAMJON ABRORJON O'G'LI

Qator orasi va ko'chat qalinligining sholi hosili va don sifatiga ta'siri.....571

BOBOBEKOVA SHAROFAT DO'STNAZAR QIZI

Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish dinamikasi va meliorativ holatini baholash.....576

MUNIRA SHAVKATOVNA XUDAYQULOVA

Sabzavot loviyasi (*Phaseolus Vulgaris* L.)ning navlari o'sishi, dukkak shakllanishi va hosildorligiga ta'siri.....582

ESHONQULOV JAMOLIDDIN SAPORBOY O'G'LI, XUDAYBERGENOV

NE'MATULLA MATKARIMOVICH, TO'XTAYEVA GULSHAN PO'LOTOVNA

Buxoro-10 (Sardor-1) va Porloq-1 g'o'za navlari ekilgan tajriba dalasi tuprog'ining suv o'tkazuvchanligi.....587

SAYFIDINOV XAYITMUROD ZIYEDULLAYEVICH

Ekish chuqurligi va minutuganak vaznining kartoshka Sante navi Palak hamda ildiz massasiga ta'siri.....591





UO'T: 635.5:631.5:631.53

NO'SH PIYOZDAN BOSH PIYOZ YETISHTIRISHDA EKISH SXEMALARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI

BO'RIYEV ABROR NORTAJIYEVICH

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot
institutining mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: uzrivmcp@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-9864-8975>

NIZOMOV RUSTAM AXROLOVICH

Qishloq xo'jaligi sohasi kadrlarining malakasini oshirish
va qayta tayyorlash instituti direktori, q.x.f.d., professor

E-mail: bioritim@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0002-1288-8273>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston sharoitida no'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda turli ekish sxemalarining iqtisodiy samaradorligi baholangan. Tadqiqotlar 2022–2024 yillarda Istiqbol va Malla navlari ishtirokida olib borilib, ishlab chiqarish xarajatlari, yalpi tushum, sof daromad, mahsulot tannarxi va rentabellik ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, $(40+10+10+10)/4 \times 8$ sm to'rt qatorli ekish sxemasi har ikki navda ham yuqori hosildorlik, past tannarx, yuqori sof daromad va eng yuqori rentabellikni ta'minlaganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: piyoz, *Allium cepa* L., no'sh piyoz, ekish sxemasi, iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish xarajatlari, sof daromad, rentabellik.

Аннотация. В статье представлена оценка экономической эффективности различных схем посадки лука-севка при выращивании репчатого лука в условиях Узбекистана. Исследования проводились в 2022–2024 гг. с использованием сортов Истикбол и Малла. Проведен сравнительный анализ производственных затрат, урожайности, валового дохода, чистой прибыли, себестоимости продукции и уровня рентабельности в зависимости от схем посадки. Установлено, что четырехстрочная схема посадки $((40+10+10+10))/4 \times 8$ см обеспечивает наиболее высокую урожайность, снижение себестоимости продукции, увеличение чистой прибыли и повышение рентабельности производства репчатого лука.

Ключевые слова: репчатый лук, *Allium cepa* L., лук-севок, схема посадки, экономическая эффективность, производственные затраты, чистая прибыль, рентабельность.

Abstract. This study evaluated the economic efficiency of different onion set planting patterns for bulb onion production under the conditions of Uzbekistan. Field experiments were conducted during 2022–2024 using the Istiqbol and Malla cultivars. Production costs, bulb yield, gross income, net profit, production cost per unit, and profitability were comparatively analyzed under different planting patterns. The results showed that the four-row planting pattern $((40+10+10+10))/4 \times 8$ cm provided the highest yield, the lowest production cost, the greatest net profit, and the highest profitability, making it the most economically efficient planting pattern for bulb onion production.

Keywords: onion, *Allium cepa* L., onion sets, planting pattern, economic efficiency, production costs, net profit, profitability.

KIRISH

Piyoz (*Allium cepa* L.) dunyoda keng tarqalgan va yuqori oziqaviy hamda shifobaxsh xususiyatlarga ega bo'lgan sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi. U tarkibida vitaminlar, mineral moddalar, efir moylari va biologik faol birikmalarning ko'pligi bilan inson salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega.





Shuningdek, piyoz oziq-ovqat sanoatida, qayta ishlash korxonalarida hamda eksportbop mahsulot sifatida keng qo'llaniladi.

Bosh piyoz yetishtirishda yuqori va barqaror hosil olish navning biologik xususiyatlari bilan bir qatorda qo'llaniladigan agroteknologiya elementlariga, xususan ekish sxemasiga ham bog'liq. Ekish sxemasi o'simliklarning oziqlanish maydoni, yorug'lik va namlikdan foydalanish darajasi hamda fotosintetik faoliyatiga ta'sir ko'rsatib, natijada hosildorlik va mahsulot sifati shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa har qanday agroteknologik tadbir nafaqat biologik samaradorligi, balki iqtisodiy jihatdan ham asoslangan bo'lishi lozim. Shuning uchun turli ekish sxemalarida mahsulot tannarxi, yalpi tushum, sof daromad va rentabellik ko'rsatkichlarini baholash ishlab chiqarish uchun eng maqbul texnologiyani tanlash imkonini beradi [2,4, 6,7,8] .

Ushbu tadqiqotning maqsadi Toshkent viloyati tuproq-iqlim sharoitida Istiqbol va Malla navlarining no'sh piyozlarini turli ekish sxemalarida yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda ishlab chiqarish uchun eng maqbul ekish sxemasini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI

Tadqiqotlar 2022–2024 yillarda Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Toshkent ilmiy-tajriba stansiyasida olib borildi. Tajriba maydoni tipik bo'z tuproq sharoitida joylashgan bo'lib, tadqiqot obyekti sifatida Istiqbol va Malla navlarining 1–2 g li no'sh piyoz urug'lari tanlandi.

Tajribada no'sh piyozni ekishning to'rt xil ekish sxemasi o'rganildi: $(50+20)/2 \times 8$ sm (nazorat) ikki qator, $(50+10+10)/3 \times 8$ sm uch qator, $(40+10+10+10)/4 \times 8$ sm to'rt qator, $(30+10+10+10+10)/5 \times 8$ sm besh qator. Barcha variantlar 3 qatorli delyankalarda 3 qaytariqda joylashtirildi. Barcha variantlarda agroteknik tadbirlar qabul qilingan texnologiya asosida bir xil sharoitda amalga oshirildi. Kuzatuvlar davomida o'simliklarning fenologik rivojlanish bosqichlari (unib chiqishi, qishlab chiqishi, barglar hosil qilishi, piyozbosh shakllanishi va texnik pishishi), biometrik ko'rsatkichlari (o'simlik bo'yi, barglar soni, barg uzunligi va diametri), bosh piyozning o'rtacha vazni hamda umumiy hosildorligi aniqlandi. Hosil yig'ib olingandan so'ng mahsulot gektar hisobiga qayta hisoblanib, qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotlar B.J. Azimov va B.B. Azimovning «Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi» (2002) [1], B.A. Dospexovning «Методика полевого опыта» (1985) [3], S.S. Litvinovning «Методика полевого опыта в овощеводстве» (2011) [5] asosida amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berishda o'rtacha arifmetik qiymatlar, tajriba xatoligi (S_x , %) va eng kichik muhumli farq ($EKMF_{0.5}$) hisoblandi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalariga ko'ra, no'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda qo'llanilgan turli ekish sxemalari iqtisodiy ko'rsatkichlarning shakllanishiga





sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday yangi agrotexnologiya yoki ekish sxemasini ishlab chiqarishga joriy etishda uning iqtisodiy samaradorligi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Yuqori hosil olish bilan bir qatorda mahsulot tannarxini pasaytirish, sof daromad va rentabellik darajasini oshirish fermer xo'jaliklari uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ishlab chiqarishga tavsiya etiladigan texnologiyalar nafaqat yuqori hosildorligi, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali bo'lishi lozim.

No'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi 2022–2024 yillarda olib borilgan tajribalar natijalari asosida baholandi. Hisob-kitoblarda qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash bo'yicha namunaviy texnologik kartalar, shuningdek, 2022–2024 yillarda shakllangan o'rtacha bozor narxlaridan foydalanildi.

Bir gektar maydonga ekish sxemasiga qarab 428,6–1071,4 kg no'sh piyoz sarflandi. Hisoblashlarda bir dona no'sh piyozning o'rtacha vazni 1,2 g, 1 kg no'sh piyozning o'rtacha bozor narxi 7500 so'm deb qabul qilindi. Shunga muvofiq no'sh piyoz uchun sarflangan mablag' ekish sxemasiga qarab 3214,5–8035,5 ming so'm/ga ni tashkil qildi.

Bosh piyozni oziqlantirish uchun sof holda N200P150K50 kg/ga mineral o'g'itlar qo'llanildi. Bu miqdor aralashma holda 435 kg azotli, 357 kg fosforli va 83 kg kaliyli o'g'itlarga to'g'ri keldi. Mineral o'g'itlar xarajati 2022–2024 yillardagi o'rtacha bozor narxlari asosida hisoblandi. Yonilg'i-moylash materiallari sarfi gektariga 350 litr qilib qabul qilinib, bir litr dizel yoqilg'isi 9000 so'm hisobidan jami 3150,0 ming so'm mablag' sarflandi.

1-jadval

No'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda turli ekish sxemalarini va navlar bo'yicha iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari (2022–2024 yy.)

Ko'rsatkichlar	$\frac{(50+20)}{2} \times 8$ sm	$\frac{(50+10+10)}{3} \times 8$ sm (nazorat)	$\frac{(40+10+10+10)}{4} \times 8$ sm	$\frac{(30+10+10+10+10)}{5} \times 8$ sm
Istiqbol				
No'sh piyoz, o'g'it, YOMM va boshqa xarajatlar	16 058	18 201	20 344	22 487
Hosilni yig'ishtirish va transport xarajatlari	13 160	14 240	17 700	15 140
Ustama xarajatlar (25%)	19348	21761	24769	26272
Kutilmagan xarajatlar (20%)	19348	21761	24519	26272
Barcha xarajatlar jami	67 914	75 963	87 332	90 171
Mahsulot hosili, t/ga	65,8	71,2	88,5	75,0
Mahsulotdan olingan daromad	118440	128160	159300	135000
Sof daromad	50 526	52 197	71 968	44 829





1 tonna mahsulot tannarxi	1032	1067	987	1202
Rentabellik, %	74,4	68,7	82,4	49,7
Malla				
No'sh piyoz, o'g'it, YOMM va boshqa xarajatlar	16 058	18 201	20 344	22 487
Xosilni yig'ishtirish va transport xarajatlari	13 260	14 520	17 760	16 480
Ustama xarajatlar (25%)	19 373	21 831	24 784	26 607
Kutilmagan xarajatlar (20%)	19 373	21831	24784	26607
Barcha xarajatlar jami	68 064	76 383	87 672	92 181
Mahsulot hosili, t/ga	66,4	73,3	89,3	82,1
Mahsulotdan olingan daromad	119520	131940	160740	147780
Sof daromad	51 456	55 557	73 068	55 599
1 tonna mahsulot tannarxi	1025	1042	982	1123
Rentabellik, %	75,6	72,7	83,3	60,3

Tajriba maydonida sug'orish ishlari jami 7 marta amalga oshirildi. Birinchi sug'orish uchun gektariga 300 ming so'm, keyingi olti sug'orishning har biri uchun 200 ming so'mdan mablag' hisoblanib, jami 1500,0 ming so'm sarflandi. Yer haydash ishlariga 900 ming so'm, egat olishga 600 ming so'm, qator oralariga ishlov berishga 900 ming so'm hamda kasallik va zararkunandalarga qarshi kimyoviy ishlov berishga 800 ming so'm sarflandi. Natijada no'sh piyoz, mineral o'g'itlar, yonilg'i-moylash materiallari, parvarishlash va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari ekish sxemasiga qarab 16058–22487 ming so'm/ga ni tashkil qildi. Hosilni yig'ishtirish va transportda tashish uchun o'rtacha 1 tonna mahsulotga 200 ming so'm hisoblandi.

Texnologik karta talablariga muvofiq jami ishlab chiqarish xarajatlariga 25 % ustama hamda 20 % kutilmagan xarajatlar hisoblandi. Barcha ishlab chiqarish xarajatlari, ustama va kutilmagan xarajatlar qo'shib umumiy xarajatlar aniqlandi. Hosilni yig'ishtirish va transport xarajatlari esa har bir ekish sxemasida olingan hosildorlik darajasiga qarab o'zgardi.

Istiqbol navida barcha xarajatlar 67914–90171 ming so'm/ga oralig'ida bo'ldi. Eng kam xarajat $((50+20))/2 \times 8$ sm ekish sxemasida, eng yuqori xarajat esa $((30+10+10+10+10))/5 \times 8$ sm ekish sxemasida qayd etildi. Mahsulotning o'rtacha sotish narxi 1 kg uchun 1800 so'm deb qabul qilinib, gektardan olingan yalpi daromad 118440–159300 ming so'm/ga ni tashkil qildi.

Ekish sxemalari orasida eng yuqori iqtisodiy ko'rsatkich $((40+10+10+10))/4 \times 8$ sm variantida qayd etildi. Ushbu sxemada gektaridan 88,5 t mahsulot olinib, yalpi daromad 159300 ming so'm/ga, sof daromad





71968 ming so'm/ga ni tashkil qildi. Bir tonna mahsulot tannarxi 987 ming so'mgacha pasaydi va rentabellik darajasi 82,4 % ga yetdi.

Nazorat variantida rentabellik 68,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, $((50+20))/2 \times 8$ sm ekish sxemasida 74,4 %, $((30+10+10+10+10))/5 \times 8$ sm ekish sxemasida esa 49,7 % bo'ldi. Besh qatorli ekish sxemasida o'simliklar zichligining ortishi natijasida hosildorlik 4 qatorli sxemaga nisbatan kamayganligi mahsulot tannarxining oshishi va iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keldi.

Malla navida ham xuddi shunday qonuniyat kuzatildi. Barcha xarajatlar 68064–92181 ming so'm/ga, yalpi daromad esa 119520–160740 ming so'm/ga oralig'ida bo'ldi. Eng yuqori hosildorlik $((40+10+10+10))/4 \times 8$ sm ekish sxemasida olinib, 89,3 t/ga ni tashkil qildi. Mazkur variantda yalpi daromad 160740 ming so'm/ga, sof daromad 73068 ming so'm/ga, bir tonna mahsulot tannarxi 982 ming so'm hamda rentabellik darajasi 83,3 % bo'ldi. Nazorat variantida rentabellik 72,7 %, $((50+20))/2 \times 8$ sm ekish sxemasida 75,6 %, $((30+10+10+10+10))/5 \times 8$ sm ekish sxemasida esa 60,3 % ni tashkil qildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ekish sxemasi o'zgarishi hosildorlik bilan bir qatorda iqtisodiy ko'rsatkichlarga ham bevosita ta'sir qiladi. O'simliklar joylashish zichligi me'yordan kam bo'lganda maydondan to'liq foydalanilmaydi, haddan tashqari zich joylashtirilganda esa o'simliklar o'rtasida ozuqa, namlik va yorug'lik uchun raqobat kuchayadi. Natijada mahsulot hosili va iqtisodiy samaradorlik pasayadi.

Shu nuqtayi nazardan, $((40+10+10+10))/4 \times 8$ sm ekish sxemasida o'simliklarning oziqlanish maydoni va joylashish zichligi o'rtasida eng maqbul muvozanat ta'minlanganligi sababli har ikki nav bo'yicha ham eng yuqori hosildorlik, eng yuqori sof daromad, eng past mahsulot tannarxi va eng yuqori rentabellik darajasi qayd etildi.

Shunday qilib, olib borilgan iqtisodiy tahlil natijalari no'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda $((40+10+10+10))/4 \times 8$ sm ekish sxemasi agrotexnik va iqtisodiy jihatdan eng maqbul variant ekanligini ko'rsatdi. Ushbu ekish sxemasini ishlab chiqarishga joriy etish fermer xo'jaliklarida mahsulot tannarxini kamaytirish, yalpi va sof daromadni oshirish hamda ishlab chiqarish rentabelligini yuksaltirish imkonini beradi.

XULOSALAR

1. Toshkent viloyati tuproq-iqlim sharoitida no'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda ekish sxemasi ishlab chiqarish xarajatlari, hosildorlik, mahsulot tannarxi, sof daromad va rentabellik ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

2. Har ikki navda ham $((40+10+10+10))/4 \times 8$ sm to'rt qatorli ekish sxemasi eng yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minladi. Ushbu sxemada Istiqbol navida hosildorlik 88,5 t/ga, Malla navida esa 89,3 t/ga ni tashkil etdi.

3. To'rt qatorli ekish sxemasida mahsulot tannarxi eng past bo'lib, Istiqbol navida 987 ming so'm/t, Malla navida esa 982 ming so'm/t ni tashkil qildi. Bu





yuqori hosildorlik hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarining mahsulot birligiga nisbatan kamayishi bilan izohlandi.

4. Eng yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlar ham $((40+10+10+10))/4 \times 8$ sm ekish sxemasida qayd etildi. Istiqbol navida sof daromad 71 968 ming so'm/ga, rentabellik 82,4 %, Malla navida esa sof daromad 73 068 ming so'm/ga, rentabellik 83,3 % ni tashkil qildi.

5. Olingan natijalarga asosan, Toshkent viloyati tuproq-iqlim sharoitida Istiqbol va Malla navlarining 1–2 g vaznli no'sh piyozlarini $((40+10+10+10))/4 \times 8$ sm to'rt qatorli ekish sxemasida yetishtirish iqtisodiy jihatdan eng maqbul variant sifatida tavsiya etiladi. Mazkur sxema yuqori hosildorlik, past mahsulot tannarxi, yuqori sof daromad va rentabellikni ta'minlashi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 224 b.

2. Brewster J.L. Onions and Other Vegetable Alliums. 2nd ed. – Wallingford: CAB International, 2008. – 455 p.

3. Dospexov B.A. Metodika polevogo opita (s osnovami statisticheskoy obrabotki rezultatov issledovaniy). – 5-ye izd., pererab. i dop. – Moskva: Agropromizdat, 1985. – 351 s.

4. Khokhar K.M. Current Status of Onion Production and Future Prospects. Acta Horticulturae. 2017. Vol. 1143. P. 1–10.

5. Litvinov S.S. Metodika polevogo opita v ovoshevodstve. – Moskva: Rosselkhozakademiya, 2011. – 648 s.

6. Metodika gosudarstvennogo sortoisпитaniya selskoxozyaystvennix kultur. Vip. 4. Ovoshnie kulturi. – Moskva: Kolos, 1975. – 183 s.

7. Rabinowitch H.D., Currah L. (Eds.). Allium Crop Science: Recent Advances. – Wallingford: CAB International, 2002. – 515 p.

8. Rubatzky V.E., Yamaguchi M. World Vegetables: Principles, Production and Nutritive Values. 2nd ed. – Gaithersburg: Aspen Publishers, 1999. – 843 p.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**